

## PSIXOLOGIYA FANINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

**Mardiyeva Shahnoza Amirovna**

*SamDChTI, pedagogika, psixologiya kafedrası dotsenti, ps.f.f.d (PHD)*  
[shaxnozamardiyeva123@gmail.com](mailto:shaxnozamardiyeva123@gmail.com)

**Ahmadova Dilshoda Bozor qizi**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*  
[dilshodaahmadova710@gmail.com](mailto:dilshodaahmadova710@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada psixologiya fanining paydo bo'lish tarixi, uning taraqqiyoti, asosiy bosqichlari va rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Dastlab uning falsafa bilan chambarchas bog'liq bo'lgan davri, qadimgi yunon olimlarining falsafiy qarashlari haqida so'z yuritiladi. So'ngra mustaqil fan sifatida shakllanishidan tortib, zamonaviy psixologiya paydo bo'lishigacha bo'lgan davri rivojining asosiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, mashhur olimlarning psixologiya rivojiga qo'shgan hissasi ham ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** ruh, falsafa, idealistik va materialistik oqim, bixeviorizm, ong, xulq, zamonaviy psixologiya.

**Аннотация:** В данной статье анализируются история возникновения психологии, её развитие, основные этапы и направления эволюции. Сначала рассматривается период, когда психология была тесно связана с философией, и приводятся философские взгляды древнегреческих учёных. Затем освещаются основные особенности развития психологии — от её становления как самостоятельной науки до возникновения современной психологии. Кроме того, показан вклад известных учёных в развитие психологической науки.

**Ключевые слова:** душа, философия, идеалистическое и материалистическое направление, бихевиоризм, сознание, поведение, современная психология.

**Abstract:** This article analyzes the origin, development, main stages, and directions of the evolution of psychology. It first discusses the period when psychology was closely connected with philosophy and examines the philosophical ideas of ancient Greek scholars. Then, the article highlights the main features of psychology's development — from its formation as an independent science to the emergence of modern psychology. In addition, the contribution of famous scientists to the development of psychological science is also discussed.

**Keywords:** soul, philosophy, idealistic and materialistic trends, behaviorism, consciousness, behavior, modern psychology.

**KIRISH.** Psixologiya bu insonlarning xulq-atvorini, ruhiyatini, ularda kechadigan turli xil psixik jarayonlarni o'rganadigan fan hisoblanadi. "Psixologiya" atamasi yunoncha "psyche"-jon, ruh, "logos"-ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, "ruh haqida fan degan ma'noni anglatadi. Ushbu termin XVI asrning oxirlarida paydo bo'lib, faqat XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlaridagina keng qo'llanila boshlangan.

Psixologiya fanining taraqqiyot bosqichlari juda uzoq tarixga borib taqaladi va psixologiya hech qachon ajralgan fan sifatida bo'lmagan, u tabiatshunoslik fanlari va falsafa negizida rivojlanib kelgan. Shuningdek, inson hayotining barcha sohaları -ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, menejment, sotsiologiya, siyosatshunoslik, hatto texnologiyalar rivoji bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, insonni har tomonlama tushunishga, uning ichki olamini, hissiy kechinmalarini, ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

**ASOSIY QISM.** Psixologiya fanining taraqqiyot bosqichlarini rus olimi L.D. Stolyarenko asosiy to'rt bosqichga bo'lgan:

- **Birinchi bosqich:** Ruh to'g'risidagi psixologiya (falsafiy davr)
- **Ikkinchi bosqich:** Ong to'g'risidagi psixologiya.
- **Uchinchi bosqich:** Xulqni o'rganuvchi psixologiya.
- **To'rtinchi bosqich:** Zamonaviy psixologiya.

Demak, psixologiya bundan 2,5 ming yil avval falsafa fani negizida ruh haqidagi ta'limot sifatida paydo bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflari inson ruhi, uning hayoti, taqdiri haqida turli xil fikr yuritganlar va o'sha davrda jon haqidagi ta'limotda bir-biriga qarama-qarshi ikki oqim -materialistik va idealistik oqim paydo bo'lgan. Materialistik oqim tarafdorlaridan bo'lgan Falesning ta'lim berishicha, butun mavjudotning, shu jumladan, insonning ham asosi suvdur. Geraklit-Tyomniy esa tabiatning asosi o't(olov)dur deb hisoblagan. "Hamma narsa olovdan paydo bo'ladi va hamma narsa yana olovga aylanadi. Butun dunyo, alohida narsalar, shuningdek, inson ruhi ham olovdan kelib chiqadi", - deydi u. Demokritning ta'limotlariga ko'ra, butun dunyo-materiya atomlardan, ya'ni juda mayda ko'zga ko'rinmaydigan zarralardan tashkil topgan, tan va ruh egasi bo'lgan inson ham xuddi shu atomlardan tarkib topgan va u ruhning abadiyligini inkor qilgan. Uning nazarida, tana o'lishi bilan ruh ham o'ladi: u-moddiy narsadir, maydalanib dunyo atomlarining umumiy yig'indisiga qo'shilib ketadi.

Idealistik falsafaning asoschilaridan Sokrat va Platon fikrlari esa materialistik oqim tarafdorlari inidan tubdan farq qiladi. Ular jon va tan mutlaqo har xil, hatto qarama-qarshi bo'lgan ikki mohiyatdir, deb ta'lim bergan. Tana moddiydir, uni sezgi a'zolarimiz orqali idrok qilishimiz mumkin, jon esa moddiy emas, balki ruhiydir. Uning tana bilan birga bo'lishi vaqtinchalik, tana o'lishi bilan jon yana ideal dunyoga qaytib ketadi. Endi psixologiyaning

asoschisi va otasi hisoblangan Aristotelning ta'limotiga nazar tashlasak, u o'z ta'limotida idealizm va materializm o'rtasida ikkilanib qolgan. Ruh va tana uzviy bog'langan, ammo ruh moddiy ham, jismiy ham bir narsa emas, deb hisoblagan. Ruh haqida aniq tushuncha berish har jihatdan haddan tashqari qiyin ish, ruh bu jism emas, balki o'shanga xos bir narsadir... U mavhum tushunchadir (Aristotel).

Psixologiya fanining taraqqiyot bosqichlarining ikkinchisi ong to'g'risidagi psixologiya hisoblanadi. Ushbu bosqich XVII asrda vujudga kelgan bo'lib, asosiy e'tibor inson ongiga, tafakkuriga, iroda jarayonlariga, idrokiga va his tuyg'ulariga qaratilgan edi. Bu davrdan boshlab psixologiya asta-sekin falsafadan ajralib chiqa boshladi. Ong to'g'risidagi psixologiya asosiy namoyondalaridan biri fransuz matematigi va tabiatshunosi Rene Dekart quyidagi nazariyalarni ilgari surgan. U psixologiyani dualistik nuqtai nazardan talqin qilib, aql va tana o'rtasidagi o'zaro aloqani tahlil qilgan. U inson tafakkuri mustaqil mohiyatga ega, deb hisoblagan va bu fikr psixologiyada ong tushunchasining shakllanishiga asos bo'lgan. Bundan tashqari XIX asrga kelib, nemis olimi Vilgelm Vundt psixologiyani mustaqil eksperimental fan sifatida asoslab, 1879-yilda Leyptsig universitetida birinchi laboratoriyani tashkil etdi. U ruhiy jarayonlarni tajriba asosida o'rganish zarurligini ta'kidlab, psixologiyani ilmiy izlanishlarning markaziga olib chiqdi va ushbu yil psixologiya fan sifatida yuzaga kelgan sana hisoblanadi.

Demak, taraqqiyot bosqichlarining yana biri bu xulqni o'rganuvchi psixologiya hisoblanadi. Bu fanda bixeviorizm deb ataladi va XX asr boshlarida vujudga kelgan. Ushbu bosqich inson va hayvonlarning xatti-harakatlari, ya'ni xulqini o'rganishga qaratilgan. Bixevioristlarning nazariyasiga ko'ra, inson xulqi ong faoliyati bilan emas, balki tashqi qo'zg'ovchilarning yig'indisi bo'lgan situatsiya bilan belgilanadi. Insonning psixik hayoti butunlay organizm reaksiyalarining yig'indisiga tenglashtirib qo'yiladi. Bixeviorizm asoschilaridan biri J. Uotson psixika va ong haqida shunday degan: "Agar bixeviorizm fanda qandaydir ko'zga ko'rinarli o'rin olishni xohlasa, u "ong" tushunchasini mutlaqo rad etmog'i lozim". Ya'ni uning ta'limotiga ko'ra, Psixologiya ongni emas, balki xulqni o'rganadiga fan bo'lishi kerak.

Psixologiya fani taraqqiyotining so'ngi bosqichi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan zamonaviy psixologiyadir. Ushbu bosqichda inson ruhiy hayoti har tomonlama, ijtimoiy muhit hamda biologik omillar bilan bog'langan holda o'rganiladi va o'zining ko'plab tarmoqlarga egaligi bilan ahamiyatlidir. Ularga kognitiv psixologiya, neyropsixologiya, gumanistik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, amaliy psixologiya kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, psixologiya kognitiv va neyropsixologik yo'nalishlari bugungi davrda inson tafakkurini, idrokini va xotira jarayonlarini chuqur o'rganishda muhim o'rin tutmoqda.

**XULOSA.** Yuqoridagi tadqiqotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, psixologiya fani nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham chuqur ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Uning tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini o'rganish ushbu fanning taraqqiyoti uchun poydevor bo'ladi. Demak, dastlab psixologiyaning tarixi falsafa bilan bog'langan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan shakllanib bugungi zamonaviy davrda inson ruhiy hayotining barcha jabhalarini o'rganadigan keng qamrovli soha darajasiga yetdi va bunda Aristotel, R. Dekart, J. Uotson, Fales, Z. Freyd kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari yuqori ahamiyatga ega. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, psixologiya bugungi kunda inson hayotining har bir jabhasi uchun zarur bo'lgan eng muhim sohalardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.I. Ivanov, M.E. Zufarov. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyot-2018.
2. A.D. Shavkatovna. Zamonaviy psixologiya: Tarixiy ildizlari va bugungi istiqbollar. Insightpublishing.org. -2025.
3. A. Sh. Shamsiddinovna. Psixologiya fanining rivojlanish bosqichlar. Innovation science and research. -2023.
4. Soxibov. H. T. Psixologiya fani tarixi va rivojlanishi. Multidisciplinary scientific journal. -2023.

#### Taqriz

Ushbu ilmiy maqola psixologiya fanining paydo bo'lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yo'nalishlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda psixologiyaning falsafa bilan bog'liq davridan boshlab, mustaqil fan sifatida shakllanishigacha bo'lgan jarayonlar ilmiy asosda bayon etilgan. Maqola mazmuni ilmiy talablarga javob beradi, fikrlar mantiqiy ketma-ketlik asosida yozilgan va o'quv jarayonida qo'llash uchun amaliy ahamiyatga ega.